

№ S/4 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

Nº S/4 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аббасов Беҳзод Бахтиёрович</i>	
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРГОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ	10-21
<i>Бабаджанов Ҳасан Бахтиёрович</i>	
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ	22-27
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	28-36
<i>Rasulov Ma'murjon Foziljonovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OBYEKTALARINING O'RNI	37-42
<i>Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна</i>	
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИННИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ	43-51
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i>	
FARG'ONA VODIysi QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN	52-58
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i>	
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ	59-65
<i>Turaev Sherzod Gulboy ugli</i>	
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH	66-71
<i>Сотиболдиев Гайратжон Отамирзаевич</i>	
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР	72-78
<i>Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ	79-90
<i>Абдуллајсанова Нигорахон Турдалиевна</i>	
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН	91-95
<i>Дониёров Носиржон Абдухолик ўғли</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН	96-102

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқурова</i>	
ИСЛОМИЙ СУФУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i>	
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i>	
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O’RNI	119-125
<i>Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i>	
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i>	
O’ZBEKİSTONDA RAQAMLI IQTISODİYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONİYATLARI	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o’g’li</i>	
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ	147-155
<i>Qurbanov Ma’murjon G’ayrat o’g’li</i>	
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO’RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O’ZBEKİSTON TURİZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i>	
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ	173-188
<i>Гойиназаров Санжар Баходирович</i>	
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҶАМЛЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллайевич</i>	
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196-203
<i>Курбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Ҳакимов Дамир</i>	
ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ	204-216
<i>Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o’g’li</i>	
YASHIL IQTISODİYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARINI YO’NALTIRISH ZARURIYATI	217-222

Исломов Алишер Бахтиёр ўғли
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ
ТАЪМИНЛАШ 223-229

Agzamova Nargiza Gapurovna
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN 230-237

Муродова Дилноза Чориевна
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ 238-245

Khodjaeva Shodiyabonu Abitjanovna
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING
FUNKSIYALARI 246-250

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНӢЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ
ҮРНИ 251-259

Ibroximov Sarvar Mo'ydinjon o'g'li
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 260-265

Yuldashev Ibroxim To'ychiyevich
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING
MUSHTARAKLIGI 266-271

Khamdamova Sitora Safarovna
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA
XOSLIGI 272-277

Абдуллаев Джасур Абдивайт ўғли
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО
ЧЕЛОВЕКА 278-283

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK
BIRLIKLER BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR 284-292

Qurbanova Muharram Jurabekovna
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI 293-297

Сафарова Замира Рустамовна
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК
ТАСНИФИ 298-304

<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i>	THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS'	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i>	ETEL LILIAN VOYNICHNING "SO'NA" ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i>	TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO'LLANILISHI	319-325

<i>Асадова Дилбархон</i>	ЎРХОН ПАМУҚНИНГ "ҚОРА КИТОБ" РОМАНИДА "ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ" МОТИВИ	326-342
--------------------------	---	---------

<i>Khusanov Eldor Davlat o'g'li</i>	BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI	343-348
-------------------------------------	---	---------

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i>	ЖАМИЯТДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	349-355
---------------------------------------	---	---------

<i>Шымбергенова Улзада</i>	ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	356-362
----------------------------	--	---------

<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i>	ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	363-372
--	---	---------

<i>Мирзаев Щухрат Шавкатович</i>	КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ	373-382
----------------------------------	---	---------

<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i>	"ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ"	383-392
--------------------------------------	--	---------

<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i>	ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	393-399
----------------------------------	---	---------

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Farrux Axmedov</i>	XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH	400-409
-----------------------	--	---------

<i>Музабарова Соодат Хайдаровна</i>	ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАҶНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ	410-415
-------------------------------------	---	---------

Xaydarova Iroda Nizomiddinovna

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI
NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

Шукрова Нафиса Алишеровна

ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН
ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ 422-427

Nigmanov Bori Botirovich

FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING
AHAMIYATI 428-433

Муродова Дурдона Раимжон қизи

БҮЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК
ТЕХНОЛОГИЯСИ 434-438

Axmedov Alisher Nosir o'g'li

ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI 439-447

Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI 448-452

Mansurbekova Feruza Gayratovna

BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 453-456

Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna

O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI 457-465

Atamuratova Munira

O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY
ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL
METODLAR TAVSIFI 466-471

Нурилло Эминов

ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА
БИР НАЗАР 472-476

*13.00.00 – Педагогика фанлар***Нурилло Эминов,
ЎзДСМИ “Вокал” кафедраси ўқитувчиси****ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ
ИЖОДИГА БИР НАЗАР**

Аннотация. Ушбу мақолада бахшилар санъатини ривожлантириш, янада юксалтириш ҳамда достонларни “Бир актёр театри” шаклидаги ижросини йўлга кўйиш лозимлиги хусусида фикр юритилади.

Калит сўзлар: бахши, халфа, актёр, режиссёр, сценарий, драматург.

**Нурилло Эминов,
Преподаватель кафедры «Вокал» УзДГМИ****ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО ОТАХАНА МАТЁКУБОВА, МАСТЕРА-ИСПОЛНИТЕЛЯ
ХОРЕЗМСКИХ ЭПОСОВ**

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость развития и совершенствования искусства бахши и налаживания исполнения былин в форме “Театра одного актёра”.

Ключевые слова: бахши, халфа, актёр, режиссёр, сценарий, драматург.

**Nurillo Eminov,
Teacher of the "Vocal" department of UzDSMI****A LOOK AT THE WORK OF OTAKHAN MATYOKUBOV, A MASTER PERFORMER
OF KHOREZM EPICS**

Abstract. This article discusses the need to develop and improve the art of bakhshis and to establish the performance of epics in the form of "One-actor theater".

Keywords: baxshi singer, khalfa, actor, director, screenwriter, playwright.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N61>

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi shu qadar boyki, unda har bir elning dostoni, ertagi, aytimi, o‘lani, maqolu-matallari bor. Ularni aytib yurgan odamlarni baxshi, jirov, oqin deb atashgan. O‘zbek xalqi azaldan o‘zining tili biyron baxshilari bilan dovrug‘ taratib kelgan. Baxshi - xalq terma va dostonlarini ijro etuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi, yuksak tayyorgarlikka ega bo‘lgan, xalq quvonchiyu orzu-umidlari bilan hamnafas yashovchi ijodkordir[1]. Shu jihatdan, baxshilar ezgulik elchilari bo‘lgan va hamisha xalq orasida e’zozlangan.

Mamlakatimizning har bir mintaqasida o'ziga xos iじro uslubiga ega bo'lgan baxshishoirlari bor. Xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Toshkent, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasida baxshilar san'ati keng rivojlangan. Ular bir-biridan iじro mahorati va repertuari boyligi bilan farqlanadi[2].

Metodlar. Xorazm baxshilaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Otaxon Matyoqubov 95 yoshda bo'lishiga qaramay hamon tetik, bardam, dostonlarni, xalq qo'shiqlarini zavq bilan qiyalmay, iじro eta oladi.

San'atkor bolalik davrlari haqida quyidagilarni bayon qildi - "Bolaligim ko'hna Urganchning Ilonli tomonlarida o'tgan. Tumanimizda konsertlar bo'lib turar, u yerda dostonlardan namunalar aytishardi. Men ham uyga kelib, qo'limga tushgan narsani go'yo tor qilib chalib, baxshilardan eshitib olgan qo'shiqlarni aytib yurardim. Shu alfovda sakkiz dostonni yod olganman. Ijromni eshitgan onam 1948 yil Bola baxshiga shogirdlikka topshirgan. Bola baxshining doston aytishlarini ko'rib, sehrlanib qolardim va ustoz-shogird an'analariga rioya qilib, iじro mahoratim shakllana boshlad".

- **Toshkentga qachon kelgansiz?-deb so'radim. Ustoz** - Meni 1956 yilda Toshkentdag'i "Bahor" ansambliga ishga qabul qilishdi. 1960 yilda esa Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining "Teatrshunoslik" mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirdim. O'qish jarayonida mazkur institutining professor-o'qituvchilari Toshpo'lat Tursunov hamda Mamajon Rahmonovlar meni Bola baxshining shogirdi ekanligimni bilib - "Sen o'rgangan dostonlaringni sahnaga olib chiq, sababi, o'zbek teatrining otasi ham onasi ham doston. Aslida o'zbek teatri hamma narsani baxshilardan o'rgangan. O'zbek sahnasidagi har bir doston asarlari musiqali teatrning boshlanishi"-deb maslahat berishdi.

- Boston ijrosiga qanday talablar qo'yiladi?

- Eng avvalo dostonni xalqqa tushunarli bo'lishi uchun Xorazm shevasidan adabiy til normalariga o'tishim shart edi. Sababi, baxshilar dostonlarni o'zlarini shevasida iじro qilishadi. Shuning uchun institutdagi ustozlarim menga - "Dostonni iじro qilganingda sof o'zbek adabiy tilida aytishga harakat qilgin. Ko'proq "O'tkan kunlar" romanini o'qigin. Tili jihatidan unga yetadigani yo'q. Chunki, Abdulla Qodiriyning tili barcha o'zbekka taalluqlidir", deyishganlari menga asqotdi. Shu sabab, maktablarga borib doston kechalari o'tkazganimda avvalo Xorazm dostonlarini ona-tilimizda iじro qilganim katta yordam berdi.

Demak, doston aytishda tilning sofligiga alohida e'tibor berilgan. Chunki, baxshi kuylayotgan dostonni xalq tushinishi lozim. Xulosa qilib aytganda baxshilar xalq orasida yurib, so'z boyliklarini tarqatib yuradigan xazinabonlardir.

- Baxshilar san'ati – "Bir aktyor teatri" ekanligi hususida ham to'htalib o'tsangiz.

- Har qanday doston ijrosi baxshining sahnada yakka turib, ijod qilishiga asoslanadi. Sababi, ular bir paytning o'zida ham iじrochi, ham ijodkor, ham sozanda bo'libgina qolmasdan, asardagi har bir personaj xarakterini so'zda va ohangda ochib bera olgan mahoratlari aktyorlardir. Demak, tinglovchilarni rom etuvchi ohang topa bilish, tomoshabinlarni ta'sirlantira olish, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytish "Bir aktyor teatri"ning asosiy talablaridan biridir. Baxshi, teatr aktyorlari kabi bir asarda, birgina obrazni talqin etmaydi, balki bir necha qiyofalarni yakka o'zi aks ettiradi.

Doston ijrosi aslida- "Bir aktyor teatri" degan so'z. O'zbek musiqali teatrining ildizlari aslida baxshilarimizdan kelib chiqqan. Afsuski, o'zbek musiqali teatrining paydo bo'lishida, shakllanishida bevosita yevropaning tasiri katta degan qarashlar mavjud. Bu fikr noto'g'rilingini

asoslash uchun Xorazmdagi Ogahiy teatrning ilk qadamida “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G’arib va Shohsanam” spektakllari qo’yildi. Demak, biz teatrni hech kimdan o’rganganimiz yo’q. Bir so’z bilan aytganda O’zbekiston musiqali teatrni hech kimdan o’rganmadi. Chunki, uning yakka ijrodagi dostonlari musiqali teatr manbaasi. Sababi, baxshi o’zi rejissor, dramaturg, aktyor, boshlovchi va ijro qiluvchidir”.

- Ustoz Otaxon Matyoqubov institutdagi ustozlarining sa'y-harakatlari bilan 1970 yilda “Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonini sahnada “Bir aktyor teatri” tarzida tomoshabinlar e’tiboriga havola qildi, degan xabarlar matbuotda e’lon qilingan. Shu masalaga to’xtalsangiz.

- Bir kuni maorif vaziri, bo’ylari barvasta Said Shermuhammedov filarmoniyaga kelganida menga - “Otaxon O’zbekistonda birinchi bo’lib “Doston guruhi”ni tashkil qilibsan. Shu paytgacha hech kim bu to’g’rida bosh qotirmagan edi. Cenga bir maslahatim bor. O’zbekistonda 10 mingta mакtab bor. Deyarli hamma maktablarda 5 sinfdan to 9 sinfgacha xalq dostonlari o’tadi. Endi sen shu maktablarga borib, Xorazm dostonlari haqida kechalar o’tkazasan. Hamma maktablarda sahna bor. Endi dostonni bolalarni o’rtasida o’tirib emas, sahnaga chiqib aytasan” - dedi. Shu kundan boshlab sahnaga - “Bir aktyor teatri” talablari asosida chiqa boshladim.

- Maktabdagi bolalar doston ijrosini qanday qabul qilardi?

- O’quvchilar dostonni jon dili bilan, lol bo’lib eshitardi. Agar dostonni Xorazm tilida aytsam albatta natija bunday bo’lmashdi. Adabiy til talablarini o’zlashtirib olganim uchun, tinglovchilar yaxshi qabul qilardi. Sababi, ularni yoshini inobatga olib “Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonini ko’p joylarini bolalarning didiga yoqadigan qilib, tarbiyaviy jihatlariga ahamiyat bergen holda, qisqartirib ijro qilishga harakat qilardim. Shuning uchun bo’lsa kerak maktablarda ko’proq “Oshiq G’arib” dostoni yaxshi ketardi. Chunki, dostondan ular ma’no oldilar va tadbir tugagach - “Amaki yana qachon kelasiz”-deyishardi.

- Dostonni katta yoshdagilar uchun ham ijro qilganmisiz?

- Albatta yakka ijroda muhitni, kimlar uchun ijro qilayotganining bilish juda muhim. Baxshilar san’atining yana bir jihat shunda-ki, ijro jarayonida vaziyatga mos va xos so’zni topib ayta bilish, ya’ni badihago’lylik mahoratiga ega bo’lish talab qilinadi. Bu esa o’z navbatida dostonni hajmiga ham ta’sir qilgan. Misol tariqasida oladigan bo’lsak, katta yoshdagilar orasiga kirgan baxshilar doston kuylashdan oldin, terma aytadi, so’ngra nima aytay deb so’raydi. Shu payt “Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Avazxon”, yoki “Nurali”ni aytaymi? deb ommaga murojaat qiladi. Demak-ki, baxshi shunchalik katta manbani yodda tutishi va jamoa talabini bajara olishi uning asosiy qobiliyatlaridan biri hisoblangan.

- Ustoz siz tuzgan “Doston guruhi” faoliyati qancha davom etdi?

- Ilk faoliyat 1970-yillarda boshlangan bo’lsa, 2000 yilgacha davom qildi. Shu bilan “Doston guruhi” faoliyati to’htadi. Sababi, filarmoniyaning qoshida Otaxon Matyoqubovdan boshqa yakka ijro qiladigan baxshi yo’q edi. Chunki, yonimda shogird olib yurishga imkoniyat yaratib bermadilar. Undan so’ng, bu juda og’ir ish. Axir yakka ijroda konsertni o’tkazishni o’zi bo’lmaydi. Odatda bitta konsert bir yarim soat va ba’zi joylarda ikki soatgacha davom etardi.

Shunday qilib baxshi - aktyor degan dong chiqardim. Doston ijrosi meni o’z-o’zidan “Bir aktyor teatri” ijrochisi qilib qo’ydi. Mana shu tarzda Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sirdaryo, Namangan, Andijon, Farg’ona viloyatlarida gastrol safarlarida bo’ldim. Faqat Xorazm va Qoraqalpog’istonda bo’lmadim holos. Sababi Xorazmda va Qoraqalpoqda o’zini baxshilari bor edi. Ularning to’ylari baxshi yoki xalfasiz o’tmaydi.

- Aktyorlardan baxshilar shogird tayyorlashi mumkinmi?

- Aktyor baxshi bo'lishi mumkin, agar o'zi soz chalib qo'shiq aytib beraolsa albatta. Menimcha aktyordan ko'ra baxshi kuchliroq. Sababi, u dostonning qo'shiqlari, kuyini o'zi chalib, matnini ham ijro qiladi. Demak, musiqali teatr aktyorligida tahsil olayotgan talabalar, birorta soz chalishni bilishsa albatta ularning darslariga doston ijrosini kiritish kerak. Masalan, oldingi ustoz aktyorlarimiz ko'pi soz chalishni bilishgan[3].

Demak, talabalar dostonni o'rganishi uchun tor yoki dutor chalishni bilishi kerak. Undan so'ng bitta baxshi yoki xalfa yonida kamida bir yil amaliyot o'tashi lozim. Ustoz-shogird an'anasi xamon davom etmoqda. Bundan tashqari, shogirdni ovozi, yod olish qobiliyati yaxshi bo'lishi lozim. Ayniqsa, u yoki bu doston ijrosiga o'zida layoqat bo'lishi asosiy talab hisoblanadi.

Muhokama va matijalar. Hozirgi kunda dostonlarimizning umrboqiyligi ko'p jihatdan yosh avlod bu sohani qanchalik qabul qilayotgani, tushunayotgani va o'zlashtirayotgani bilan bog'liq. Shu sababli, davlatimiz rahbarining - "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qaysidir ma'noda yo'qolib borayotgan me'rosni qaytadan tiklanishi, mamlakatimizda xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo'lgan baxshilar san'atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san'atimizdagi o'rni va ahamiyatini yanada yuksaltirish, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek - "Agar biz bu noyob san'atni saqlab qolish uchun bugun barchamiz birgalikda harakat qilmasak, ertaga, afsuski, kech bo'ladi, kelgusi avlodlar, tarix bizni kechirmaydi". Haqiqatan bu boylikni asrab-avaylash va rivojlantirish ijodkorlar burchidir[1]. Hozirgi globallashuv davrda, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat" hamda "shoubiznes"ning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda, folklor san'atiga e'tibor va qiziqish susayib borayotgan jarayonda dostonlarimiz va termalarimizni bolalikdanoq yosh avlod qulog'iga singdirib borsak, kutilgan natijalarga erishishimiz mumkin. Buning uchun, eng avvalo, xalqimizning o'lmas durdonasi-dostonlar matnlarini maktab darsliklariga kiritish lozim. Shu bilan birga mazkur dostonlarni mashhur baxshilar tomonidan kuylanganlarini audio va video variantda yozib olib, audio-vizual shaklda maktablarda bolalarga qo'yib berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa. 2016-2017 yillarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Otaxon Matyoqubov boshchiligidagi - "Xorazm dostonlari ijrosi" nomli to'garak faoliyat boshlagan edi, ammo, hozirda bu to'garak faoliyatini to'htatgan. Bu harakat Xorazm, Samarqand va Surxon baxshilar ijjrosini o'rgatadigan to'garaklar tarzida qayta tiklanishi lozim. Sababi kelajakda xalqaro baxshilar festivalida ishtirok etish uchun hozirdan tayyorlanib borishimiz lozim. Shuningdek, Surxondaryo viloyati bilan bir qatorda - Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida ham baxshilar maktablarini yo'lga qo'yish zarur. Tashkil etilgan xavaskor baxshilar sinflari va maktablarida ustoz baxshilar, olimlar, mutaxassislar hamkorlikda ishlashini yo'lga qo'yish va o'quvchilarga doston ijro etish, dostonlarning nazariy muammolari haqida tushuntirish ishlarini amalga oshirib borish lozim. Ustoz-shogirdlik an'anasi taraqqiyotning mezoni, shuni talab qiladi.

Ustoz Otaxon Matyoqubov ta'kidlaganidek, Ogahiy musiqali teatrini rivojlanishida Xorazm dostonlarini o'rni katta bo'lgan. Shunday ekan "Bir aktyor teatri" shaklida Xorazm dostonlari ijjrosini yo'lga qo'yish kerak. Buning uchun albatta kadr tayyorlash masalasiga e'tibor berish lozim. Sababi, farzandlarimizni milliy qadriyatlarimizga sodiq, o'zbekona ruhda

tarbiyalashda ezgulikka chorlaydigan, vatanparvar, adolatli, mard, jasur bo'lishga undovchi dostonlarimizning o'rni beqiyos. Respublikamizni musiqali teatrлarida esa xalqqa yaqin, davrimizga hamohang dostonlar asosida spektakllar sahnalashtirish lozim. Dostonlar asosidagi "Bir aktyor teatri" spektakllari haqida ilmiy tadqiqodlar olib borish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. "Ўзбекистонда театр ва мусиқа санъатини янада ривожлантиришни қўллаб-куватлаш ва рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида". Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – 1995. – 20 октябр //
2. Азизов Т. Анъана ва ижодий изланишлар. Театр журнали. 2003. 2-сон.
3. Отахон Матёкубов билан суҳбатдан 10 март, 2021.
4. Nasritdinova, M. (2023). METHODS OF DIRECTING FUTURE MUSIC TEACHERS TO THE PROFESSION THROUGH THE DEVELOPMENT OF THEIR ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE ON THE BASIS OF THE ARTPEDAGOGICAL APPROACH. Science and innovation, 2(B5), 325-329.
5. Насритдинова, М. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK MUSIQA TA'LIMI OQITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(4), 241-246.
6. Nasritdinova, M. N. (2023). INNOVATIVE PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPMENT OF ARTISTIC-CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS ON THE BASIS OF ARTPEDAGOGICAL APPROACH. Science and innovation, 2(B4), 711-716.
7. Насритдинова, М. Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИЯТГА НИМА УЧУН КЕРАК?. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 577-580.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

Nº S/4 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).